



Saribayeva Umida Sattarovna,

Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

e-mail: saribayeva2805@mail.ru

GENDER YONDASHUVLAR IJTIMOY PSIXOLOGIYA PREDMETINING BIR SOHASI SIFATIDA SHAKLLANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada jinslararo tenglik, biologik hamda jinsga bog'liq farqlar haqidagi tasavvurlar, bu borada alohida ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratining paydo bo'lishi, gender muammolarini o'rganuvchi nazariyalarning shakllanishi haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Tayanch so'zlar: jinslararo tenglik, biologik hamda genderga bog'liq farqlar, tasavvur, ilmiy tadqiqot, gender muammolari, nazariyalarning shakllanishi.

Аннотация. В данной статье освещаются представления о гендерном равенстве, биологических и гендерных различиях, о возникновении необходимости проведения отдельных научных исследований, а также сведения о формировании теорий, изучающих гендерные проблемы.

Ключевые слова: гендерное равенство, биологические и гендерные различия, воображение, научное исследование, гендерные проблемы, формирование теорий.

Annotation. This article highlights ideas about gender equality, biological and gender differences, about the need to conduct separate scientific research in this regard, information about the formation of theories that study gender problems.

Keywords: gender equality, biological, gender differences, imagination, scientific research, gender issues, theory formation.

Kirish. Gender tenglik nazariyasi va amaliyoti masalalarida izlanishlar olib borgan bir qator olimlar erkak va ayol jinsi o'rtasidagi tafovutning o'ziga xos sifatleri ajratilishi, gender yondashuvlarni ijtimoiy psixologiya fanining bir tarmog'i sifatida rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni qayd etishgan¹.

Jumladan, gender nazariyasi va amaliyotining mustaqil fan predmeti sifatida shakllanishi, asosiy tushunchalari, metod va konsepsiyalarini ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlashgan.

Gender nazariyasi va amaliyotining shakllanishi hozirgi zamon ijtimoiy hayotdagi gender tenglik masalalarida erishgan yutuqlar bilan chambarchas bog'liq ekanligi ta'kidlanadi.

Gender psixologiyasining fan sifatida rivojlanishi, siyosiy nuqtayi nazardan erkak va ayollarga nisbatan turli madaniyat hamda jamiyatlardagi turlicha munosabatlar mavjudligiga bog'liq, degan fikr ilgari suriladi. Shuningdek, jinsni ijtimoiy-psixologik jihatdan o'rganish, gender tengligi tamoyilini targ'ib qilishda ham siyosiy, ham huquqlashgan davrda fanning roli biroz oqsab qolayotgani qayd etib o'tilgan.

¹ Hyde, J.S. (1991). Half the human experience: The psychology of women (4th ed.). Lexington, MA: D. C. Heath and Company.

Bizning fikrimizcha, vaqtlar o'tishi bilan ayollar va erkaklarning oilaviy rollari taqsimotidagi an'anaviy qarashlari o'zgarib bormoqda va ularning ijtimoiy-madaniy, milliy-etnik, ruhiy-psixologik, hissiy-emosional va ijtimoiy shart-sharoitlarining vaziyat nuqtayi nazaridan tahlil qilinishini taqozo etmoqda va oilada gender rollar taqsimotida o'zgarish sabablarini aniqlash lozim, deb hisoblaymiz.

Asosiy qism. Tarixga nazar solar ekanmiz, erkak va ayollarning gender tengligi borasidagi izlanishlar, asosan, ikki yo'nalishda amalga oshirilmogda, jumladan:

a) gender psixologiyasining fan sifatida muayyan fan sohasi tarkibida, masalan, psixologiya va ijtimoiy psixologiyaning turli tarmoqlari doirasida shakllanishini;

b) jamiyatda jinslararo tenglik yoki tengsizlik haqidagi tasavvurlarning shakllanishi tufayli alohida ilmiy tadqiqotlarning o'tkazilishiga ehtiyojning paydo bo'lishi va bu borada olib borilayotgan ishlarni ko'rishimiz mumkin.

Shu kabi yondashuvlar asosida XX asrning ikkinchi yarmiga kelib gender muammolarini o'rganuvchi psixologiya sohasi shakllana boshladi.

Gender psixologiyasi ijtimoiy psixologiya fanining bir sohasidir. Boshqa sohalar singari u ham o'z tarixiga ega.

Jumladan, o'tgan asrning 70-yillari oxirlariga kelib, psixologik tadqiqotlar doirasi imkon qadar kengaydi. Jinsiy tafovutlarni izohlashda biologik bog'liqlik tushunchalari o'z ahamiyatini pasaytirdi va psixologik farqlilikni aniqlashga urinishlar ko'paydi. Biologik asoslarga e'tibor qaratmagan holda "Jinsga bog'liq farqlar" (sex related differences)ni aniqlashga urinishlarni Jasklinning ishlari ko'rishimiz mumkin².

Mergan Shon Brunoning "Genderning ijtimoiy psixologiyasi" kitobida ijtimoiy me'yorlarni qayta ishlash tamoyillariga binoan, inson haqiqiy yoki xayoliy guruh bosimini natijasida o'z xatti-harakati yoki e'tiqodini o'zgartirishi hamda ijtimoiy munosabatlar, madaniy gender tenglik hamda inson ongining rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin degan, fikrni ilgari suradi³. Olima o'zining qarashlarida: "Gender tafovutlar jamiyat an'anaviy

qoidalari doirasida yaratiladi, natijada gender rollari haqidagi ma'lumotlar erkaklarni ham, ayollarni ham cheklaydi va bizning o'ziga xos strategiyalarimiz tufayli qayta ishlanadi", ammo biz gender farqlarini ancha kengroq deb hisoblaymiz, deb ta'kidlaydi. Muallif o'z izlanishlarida genderning ijtimoiy-psixologik jihatlarini yaratishga harakat qilgan.

Gender tengligi tamoyilini targ'ib qilishda Haydening 1991-yildagi ishlari muhim ahamiyatga ega. Chunki u jinsning ijtimoiy psixologiyasida feministik harakatlarga nisbatan jamiyatda erkaklar siyosat bilan ko'proq shug'ullansa-da, erkaklar va ayollar o'rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy tenglik saqlanishi zarurligi haqidagi fikrlarni ilgari suradi.

Masalaning murakkabligini inobatga olgan holda, gender psixologiyasining shakllanishi va uning hozirgi holati haqidagi gender tadqiqotlari bir qator fan sohalarida o'tkazila boshlandi. Shuning uchun ham psixologik tadqiqotlarga murojaat qiladigan faylasuf, sotsiolog, demograf, etnograflarning ishlarni ham tahlil qilishga to'g'ri keladi.

"Gender" atamasi (ijtimoiy jins, madaniyat mahsuli) paydo bo'lganiga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da (1975-yil), fanda ilgari ham bir qator g'oya va izlanishlar mavjud bo'lib, biz ularni hech ikkilanmay psixologiyaning ushbu sohasiga aloqador deya olamiz. Ushbu fan tarixining 5 bosqichini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

1. Tegishli g'oyalarning falsafiy nuqtayi nazardan ishlab chiqilishi (qadimgi davrlardan XIX asr oxirigacha).

2. Gender psixologiyasining predmeti va bo'limlarining shakllanishi (XIX asr oxiri – XX asr boshi).

3. Psixoanalizning Z.Freyd nomi bilan bog'liq "Freyd davri" (XX asr boshi – 1930-yil).

4. Yirik eksperimental tadqiqotlarning boshlanishi va ilk nazariyalarning paydo bo'lishi (1950–1980-yillar).

5. Gender psixologiyasining jadal sur'atda rivojlanishi: eksperimental tadqiqotlar, empirik faktlarning nazariy tahlil qilinishi, ma'lum metod va metodikalarning adaptatsiyasi va maxsus gender metodikalarning yaratilishi (1990-yildan shu davrgacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi).

Rossiya psixologlari tomonidan quyidagi bosqichlarga ajratiladi: XIX asr oxiri – XX asr boshi; 1920–1930-yillar; 1960–1980-yillar; 1990-yildan

² Jacklin C.N. (1989-1992). Female and male: Issues of gender. *American Psychologist*, 44, pp. 127-133.

³ Shon Mergan Bruno. *Гендерная психология*. – Москва, 1993. – С. 8-28.

boshlab. Gender tadqiqotlarning qadimgi davri haqida soʻz borganda, odatda, Platon va Aristotel nomlari tilga olinadi. Platon Afinskiy (mil. av. 427–347-yillar) “Bazm”, “Davlat”, “Qonunlar”, “Timey” va boshqa asarlarida androgidlar tushunchasini kiritib, jinslarning qoʻshimchaliligi haqida fikr bildiradi. Jinslarning tenghuquqliligi haqidagi fikrlari hamda oila va nikoh haqidagi mulohazalarini bayon etadi (shuning uchun uni birinchi antik “feminist” deb atashadi. Ammo bu fikr nooʻrin, chunki uning qarashlari bir-biriga zid va umuman, bu madaniyatga taaluqli emas).

Platon androgen (grekcha “andros” – erkak va “gyne” yoki “gynaikos” – ayol) mavjudotlar (ular erkak va ayol xususiyatlariga ega boʻladilar) haqidagi mifni qoʻllaydi. Zevs insonlarning itoatsizligidan gʻazablanib, ularni ikki qismga ajratib qoʻyadi. Shunday qilib, erkak va ayol bir insonning ikki boʻlagi va faqat insonlar bir-birini sevsagina, bir butun boʻla oladi. Platonning ayollarga munosabati bir-biriga zid boʻlgan fikrlar bilan ifoda etilgan. Bir tomondan, ular juda salbiy, chunki u ayollarni tuban mavjudot deb bilar edi. Erkaklarning ayollarga boʻlgan muhabbatini erkakning erkakka boʻlgan hurmati, doʻstligi oldida hech narsa emas deb tushunar edi (u birinchisini “Behayo Afrodita”, ikkinchisini esa “Samoviy Afrodita” deb nomlaydi). Platon ijobiy qarashlarni ham namoyon qiladi: u tasvirlagan mukammal davlatda ayol kishi erkak bilan bir qatorda barcha ishlarda ishtirok etishi mumkin.

Platon ayollarni roʻzgʻor yumushlaridan ozod etib, ularning aqliy faoliyatini erkaklarniki bilan tenglashtirish kerak deb hisoblaydi (ayollar faylasuf va jangchi ham boʻlishlari mumkin edi). Farzand tarbiyasini esa ikkala jins vakillariga teng boʻlib beradi. Keyinchalik bu fikrlarni boshqa mutaxassislarning ilmiy ishlarida, shu jumladan, gender psixologiyasi boʻyicha asarlarda uchratish mumkin⁴.

Aristotel Stagirit (mil. av. 384–322-yillar) Platondan farqli oʻlaroq, “antifeminist” qiyofasida namoyon boʻladi. U oʻz zamonasiga mos fikrlarni bildiradi⁵. Bizni uning quyidagi gʻoyalari

⁴ <http://rushist.com/index.php/philosophical-articles/2245-filosofiya-platona-kratko>

⁵ Аристотель. Политика // Древнегреческая философия. От Платона до Аристотеля: сочинения. — Харьков: Фолио; М.: ООО «Издательство АСТ», 1999. — 466 с.

qiziqtiradi: a) nikoh haqidagi qonunlar; b) oilada erkak va ayol oʻrtasidagi munosabatlar; d) aholi koʻpayishining chegaralanishi; e) aholi koʻpayishini qisqartirishning usullari; f) ayol va erkakning oʻrni; g) jinslararo mehnatning taqsimlanishi; h) “Siyosat”, “Hayvonlarning paydo boʻlishi haqida” kabi asarlarda erkak va ayol shaxsiga nisbatan umumiy qarashlarning bayon etilishi. Aristotel jamiyatda farovon munosabatlar qaror topishi uchun aholi soni iloji boricha kam boʻlishi va bu masalani boshqarish lozimligini qayd etadi: a) erkaklarga 37, ayollarga 18 yoshgacha farzand koʻrishni taqiqlash (nazarimizda, erkaklar uchun ijtimoiy, ayollar uchun biologik yetuklik nazarda tutilgan).

Turkiyalik mashhur olim va adib Ahmad ibn Sulaymon (1534) oʻz zamonasining ilgʻor fikrli kishilaridan boʻlgan. Uning taʼlimotida er-xotinning oʻzaro hamjihatligi ularning salomatligida muhim oʻrin tutishi yoritilgan.

Buyuk qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino (980–1032) er-xotin munosabatlari moʻtadil boʻlishining inson salomatligidagi ahamiyatini, kishilarning individual, tipologik, mijoziy (temperament) xislatlaridan kelib chiqqan holda yoritib bergan. U oʻzining “Risolayi ishq” asarida oshiq-maʼshuqlik, har ikkisi bir-birini tenglikda eʼzozlash asosida turmush qurish chinakam baxt, oila mustahkamligining asosi ekanligini taʼkidlaydi. U oʻzining “Tib qonunlari” kitobida koʻplab muammolarni keltirib chiqaruvchi sabablar haqida batafsil maʼlumot bergan. Uning fikricha, uyalish va turli xayollar er-xotinlik munosabatlarini taranglashtiradi, xotinni yomon koʻrish, chekish, ichish, pala-partish ovqatlanish, ish va dam olish oʻrtasidagi mutanosiblikning buzilishi ham nomutanosiblikni keltirib chiqaradi. Erkak kishi har taraflama tajribali boʻlishi, ayolini qadrlashi, istaklarini eʼtiborga olishi munosabatlarni yaxshilaydi⁶. Ibn Sino bundan 1000 yil muqaddam oilaviy hayot muammolariga oid ilmiy, ilmiy ommabop kitoblar, majmualar aholining savodxonligini oshirishda va salomatligini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etishini koʻra olgan. Muhimi shundaki, Ibn Sino er-xotin tengligining oilaviy hayot mustahkamligiga taʼsirini tibbiy, axloqiy, ruhiy-maʼnaviy jihatlarini koʻrsatib bergan, oila barqarorligiga salbiy taʼsir

⁶ Абу Али Ибн Сино. Тиб конунлари. — Тошкент: Мерос, 1994. 3-т. — Б. 27-46.

etuvchi nomutanosiblik sabablarini o'rgangan va ularning oldini olish zarurligini ta'kidlagan.

Burhoniddin Marg'iloniy (1123–1197) o'zining “Hidoya” kitobida diniy va ijtimoiy hayotda uchraydigan muammoli masalalarni yoritir ekan, “Musulmoncha nikoh shartlari” bobida “Ikki kishining nikohda guvohlik berishi, erkak-ayolning o'rtasidagi ixtiyoriy tenglik masalalari er-xotin munosabatlarida uyg'unlik sharti, deb qaralgan”⁷.

Lott ta'kidlaganidek, ijtimoiy psixologiya har qanday holatda ham jins bilan kesishadi, chunki jinsning o'ziga xosligini tadqiq qilishda gender farqlilikni “shakllantiradigan va saqlaydigan sharoitlarni o'rganish, ijtimoiy xulq-atvor madaniyatning qandayligini o'rganishdir”⁸.

Ijtimoiy me'yorlar insonning jamiyatdagi xatti-harakatlarini belgilaydigan asosiy qoidalaridir. Ijtimoiy psixologlarning fikriga ko'ra, “gender farqlarini jinsning biologik jihatlari, garmonlari yoki xromosomalaridan izlash kerak emas”. Ijtimoiy hayotda erkak va ayolning biologik jinsiga qarab har xil turdagi xulq-atvori, munosabat shakli, qiziqishlari haqida umumlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan me'yorlar to'plami mavjud bo'lib, u erkak va ayolning har biriga xos bo'lgan fazilatlar, gender rollar sifatida idrok qilinadi. Biz o'z gender rolimizdan, kutilgan gender xatti-harakatimizdan chetlashganimizda jamiyatning noroziligini boshdan kechiramiz. Bizning xulq-atvorimizga bevosita ijtimoiy me'yorlar ta'sir qiladi, ular ijtimoiy kontekstda uzoq vaqtdan beri jamoa tomonidan qabul qilingan.

Tasavvurlarimizda erkaklarda erkakka xos xususiyatlar, xatti-harakat me'yorlari va ayollarda ayollarga xos fazilatlar, xatti-harakatlarning ma'lum o'ziga xos gender farqlarini xarakterlovchi g'oyalar to'plami mujassamlashgan. Igli Eagli gender stereotiplari mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy normalardan iboratligini aytib o'tgan⁹. Shundan kelib chiqib, ko'pchilik odamlar bir xil nuqtayi nazarga ega va o'zlarining u yoki bu jins vakillari sifatida

jamiyatda qanday xatti-harakatlari ma'qullanishidan kelib chiqib taqlid qiladilar, harakatlarini gender me'yorlariga moslashtiradilar, mos munosabatda bo'ladilar.

Attityud – ma'lum sharoitlarda va vaziyatlarda obyektga nisbatan, insonning kuchli istagini, intilishini, qiziqishini, munosabat turini, reaksiya kuchini bildiradi. Gender talablariga moslashishda biz o'z harakatlarimizni jamiyat tomonidan talab qilinadigan ikkita asosiy – gender rollarni tartibga solib, nazorat qiluvchi va axborot bosimi me'yorlariga moslashtiramiz.

Gender tafovutlarning shakllanishida nazorat va me'yorlar bosimining roli muhim ahamiyat kasb etadi. “Me'yoriy bosim” atamasi odamni ijtimoiy yoki guruh kutishlariga (ijtimoiy me'yorlarga) moslashishga majburlash mexanizmini tavsiflaydi. Ijtimoiy me'yorlarga mos kelmaydigan gender rollar va xatti-harakatlar jamiyat tomonidan rad etilgan.

Bu holat o'sha davrlardanoq jamiyatda odamlarning gender rollariga bo'lgan majburiyatlarini tartibga solishda axborot hamda nazorat bosimining roli katta bo'lgan va juda muhim deb qaralishi bilan izohlanadi.

Eksperimental qism.

Tadqiqot ishlarimiz Toshkent viloyatining Ohangaron tumanida hamda Toshkent shahrining Sergeli tumanida istiqomat qiluvchi oilalar orasida o'tkazildi. Gender yondashuvlar ijtimoiy psixologiya predmetining bir sohasi sifatida rivojlanishi bu sohada olib borilayotgan tadqiqotlarga bog'liq. Shu bois Yu.Ye.Aleshina va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan “Oiladagi rollar taqsimoti” so'rovnomasidan foydalanildi¹⁰. Ushbu so'rovnoma yordamida o'zbek oilalarida erkaklar va ayollar o'rtasida oilaviy rollarni taqsimlash bo'yicha shaxsiy munosabatlari va oilada er-xotinlarning rollar taqsimotidagi ishtirokini o'rganildi.

So'rovnomada oiladagi asosiy rollar: 1) bolalarni tarbiyalash; 2) oilani moddiy qo'llab-quvvatlash; 3) oilada hissiy muhitni yaratish; 4) o'yin-kulgilarni tashkil qilish; 5) uy egasi – xo'jalik bekasi roli; 6) jinsiy hamkorlik; 7) oilaviy madaniy hordiqni tashkil etishda er-xotinlarning gender rollarini namoyon bo'lishi aniqlandi.

⁷ Бурхониддин ал-Марғилоний. “Ҳидоя”. – Тошкент: Адолат, 2000. – 185 б.

⁸ Lott, B. (1991). Social psychology: Humanist roots and feminist future. *Psychology of Women Quarterly*, 15, 505-5 Lott, B., & Maluso, D. (1993). The social learning of gender. In A. E. Beall & R. J. Sternberg (Eds.), *The psychology of gender*. New York: Guilford Press. pp. 99-126

⁹ Eagly, A. H. (1987). *Sex differences in social behavior: A social-role interpretation*. Hillsdale, NJ: Erlbaum..

¹⁰ Алешина Ю.Е., Гозман Л.Я., Дубовская Е.М. Социально-психологические методик исследования супружеских отношений. – М.: МГУ, 1987.

№	Oiladagi rollar taqsimoti	Erkakni bahosi	Erkakni ayolidan kutilmasi	Ayolning bahosi	Ayolning erkakdan kutilmasi
1	Bolalarni tarbiyalash	24	75	76	85
2	Oilani moddiy qo'llab-quvvatlash	79	50	21	90
3	Oilada hissiy muhitni yaratish	32	67	68	71
4	O'yin-kulgilarni tashkil qilish	41	78	28	86
5	Uy bekasi – xo'jalik ishlarini yuritish roli	34	89	78	65
6	Jinsiy hamkorlik	56	68	45	76
7	Oilaviy madaniy hordiqni tashkil etish	43	56	52	57

Olib borilgan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, an'anaviy oilalarda bolalarni tarbiyalashda erkaklar 24 foiz natija bilan ma'suliyatni ko'proq ayollariga topshirishlari kuzatildi, yani oilalarda bolalarni tarbiyalash masalasida erkakni ayolidan kutilmasi 75 foizni tashkil etdi. Ushbu holat erkaklar asosiy etiborni oilani moddiy qo'llab-quvvatlash ishlariga qaratishlarini, olingan natijalarning 79 foizini tashkil etdi. Biroq ayollarning kutilmalarida 85 foizi bolalarni tarbiyalash bilan, asosan, erkaklar ham shug'ullanishlari zarurligi ta'kidlangan. Oilani moddiy qo'llab-quvvatlash ko'rsatkichi bo'yicha 90 foiz ayollar ushbu rollar erkaklar tomonidan bajarilishi zarurligini qayd etishgan. Erkaklarning 50 foizi oilani moddiy qo'llab-quvvatlash rolda ayollar ham ma'sul bo'lishlarini qayd etgan.

Shuningdek, oilada hissiy muhitni yaratish rolining bajarilishi erkaklarning 67 foizi ayollardan kutishlari, ayollarning 71 foizi erkaklardan kutishlari, ya'ni har ikki er-xotinlar bir-birlaridan kutishlari aniqlandi. Oila a'zolari uchun o'yin-kulgilarni tashkil qilish rolining amalga oshirilishini er-xotinlar bir-birlaridan kutishlari aniqlandi, erkaklar kutilmalarida 78 foiz, ayollarning 86 foizi oila a'zolari uchun o'yin-kulgilarni tashkil qilish rolining amalga oshirilishida erkak kishilarning roli, ma'suliyati yuqori bo'lishini ta'kidlashgan. Bu o'zbek etnomadaniyatida erkaklar nufuzining baland qo'yilishi, ayollarimiz qarashlarida oiladagi har bir jarayonga erkak bosh-qosh bo'lishi kerakligi haqidagi tasavvur stereotiplarining shakllangani bilan izohlanadi. Shuningdek, o'g'il bola o'z hissiyotini bildirmasligi, jiddiy bo'lishi kerak, qabilidagi tarbiya me'yorlari erkaklarni hissiy yopiq holatga olib kelib qo'ygani va bu

oilada hissiy muhitni yaratish va o'yin-kulgilarni tashkil qilishda o'zlarining rollarini o'rtadan kam baholashgan. Hattoki, 89 foiz erkaklar uy xo'jalik ishlarini yuritishni, asosan, ayol kishi tomonidan bajarilishini kutishlari qayd etilgan. Uy xo'jaligidagi kamchiliklar, kichik ta'mirlash ishlari ham ayollar tomonidan ogohlantirilishi, ammo bajarilishida erkak tomonidan paysalga solinishi oilada erkak va ayollik rollarining taqsimlanishi va amalga oshirilishida ziddiyatlar kelib chiqishi kuzatildi. Jinsiy hamkorlik, oilaviy madaniy hordiqni tashkil etish borasida ham er-xotin rollari taqsimoti bir-birlarining kutilmalariga mos emasligi aniqlandi. Bu borada, er xotini, xotini eridan kutishlari o'zbek oilalarida er-xotinlarning gender tengligi masalasi biroz tortishuvli va bu psixogenetik, psixofiziologik, ijtimoiy-psixologik, milliy-etnik omillarning mavjudligi bilan izohlanadi. Shuningdek, o'zbek oilasida er-xotinlar orasidagi gender tenglik masalalari ijtimoiy rollar va ijtimoiy onglik, aqliy-intellektual salohiyat, umuminsoniy qadriyatlar tizimi va shaxsning o'z-o'zini baholash darajasiga ham bog'liq¹¹. Tadqiqot ishlarimizda Sandra Bem savolnomasi asosida Toshkent viloyati hamda Toshkent shahrining Sergeli tumani oilalarida erkaklik – maskulinlik, ayollik – femininlik hamda androgen – har ikkisiga xos sifatlar shakllanganligi o'rganildi. Olingan natijalarga asoslanib, androgen xususiyatlar shakllangan oilalarda hissiy-psixologik uyg'unlik rivojlangan. Olib borilgan tadqiqot natijalarimizda er-xotinlar his-tuyg'ularida bir-birlarini sevimli inson sifatida, o'zaro ideallashtirgan holda idrok etishlari, chiroyli, aqlli, ijobiy xislatli va

¹¹ Saribayeva U.S. O'zbek oilalarida gender tenglik va milliy qadriyatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. "Pedagogika" ilmiy-nazariy va metodik jurnali. 2021-yil, 4-son. – B. 34-36.

o'ziga xos sifatleri idrok etilishi aniqlandi. Gender tenglik shakllangan er-xotinlarda o'zaro altruizm ifodalanib, o'zaro munosabatlarda yoqimlilik tuyg'ulari ustun bo'lishi kuzatildi. "Birgalik" effekti, hissiy-psixologik uyg'unlikni rivojlantirib, tenglik, o'zaro bir-birlarini tan olish, yon berish holatining mavjudligi bilan izohlanadi. Er-xotinlar o'rtasidagi hissiy-emotsional uyg'unlik o'zaro birgalik effektining rivojlanishiga olib keladi va psixologik jihatdan tenglik munosabatlarini shakllantiradi¹².

¹² Saribayeva U.S. O'zbekistonning barqaror rivojlanishida er-xotin gender tengligi ta'minlanishining ijtimoiy-psixologik asoslari. – B 36-39. Ta'lim va rivojlanish tahlili. Onlayn ilmiy jurnali, 2022. ISSN: 2181-2624.

Sandra Bem savolnomasi asosida olib borilgan tadqiqot natijalarimizda zamonaviylik omili ayollik (an'anaviy ravishda "ayol" fazilatleri), erkaklik (an'anaviy ravishda "erkak" fazilatleri), androginiya gender-neytral sifatlar o'rganildi. Emotsionallik, qaramlik, empatiya, ayollik omillari ayolga nisbatan an'anaviy qarashlarni aks ettirib, 78,85 foiz – yuqori ko'rsatkichlar an'anaviy baholanishini ko'rsatdi. Erkaklik omillari uchun yuqori qadriyatlar bu erkaklarning ham jins, ham shaxs sifatidagi o'rnini baland saqlashga intilishi, kuchi, ijtimoiy mavqeyi, zamonaviylik, o'rganilayotgan obrazlar "ayollar"ga nisbatan an'anaviy nuqtayi nazardan qarashga moyilligining mavjudligi tasdiqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абу Али Ибн Сино. Тиб конунлари. – Тошкент: Мерос, 1994. 3-т. – Б. 27-46.
2. Алешина Ю.Е., Гозман Л.Я., Дубовская Е.М. Социально-психологические методк исследования супружеских отношений. – Москва: МГУ, 1987.
3. Bem, S.L. (1993). The lenses of gender: Transforming the debate on sexual inequality. New Haven, CT: Yale University Press.
4. Бурхониддин ал-Марфилоний. "Хидоя". – Тошкент: "Адолат", 2000. – 185 б.
5. Saribayeva U.S. O'zbek oilalarida gender tenglik va milliy qadriyatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. "Pedagogika" ilmiy-nazariy va metodik jurnali. 2021-yil, 4-son, B-34-36.
6. Saribayeva U.S. O'zbekistonning barqaror rivojlanishida er-xotin gender tengligi ta'minlanishining ijtimoiy-psixologik asoslari. – B 36-39. Ta'lim va rivojlanish tahlili. Onlayn ilmiy jurnali, 2022. ISSN: 2181-2624.
7. Asch S.E. (1956). Studies of independence and conformity: A minority of one against a unanimous majority. Psychological Monographs, 70 (9. Whole No. 416).
8. Eagly A.H. (1987). Sex differences in social behavior: A social-role interpretation. Hillsdale, NJ: Erlbaum.
9. Lott B. (1991). Social psychology: Humanist roots and feminist future. Psychology of Women Quarterly, 15, pp. 505-519
10. Hyde J.S. (1991). Half the human experience: The psychology of women (4th ed.). Lexington, MA: D.C. Heath and Company.
11. Jacklin C.N. (1989-1992). Female and mate: Issues of gender. American Psychologist, 44, pp. 127-133.
12. Shon Mergan Bruno. Гендерная психология. – Москва, 1993. – С. 8-28.
13. <http://rushist.com/index.php/philosophical-articles/2245-filosofiya-platona-kratko>